

O'qituvchi ishni baholash mezonlarini e'lon qiladi. Ish mustaqil ravishda bajariladi. Zarur hollarda o'qituvchi yordam ko'rsatadi.

Yakunlash va refleksiya (5 daqiqa).

Darsning bu qismi ham tuzilma bo'yicha odatdagidek o'tkaziladi.
Dars oxirida o'qituvchi o'quvchilarning erishgan yutuqlarini baholaydi.

8-dars. Toshbaqa. O'rdakcha

Dars maqsadlari:

- o'quvchilarning dunyoqarashini kengaytirish;
- plastilin va uning xususiyatlari bilan tanishtirishni davom ettirish;
- plastilin bilan ishlash ko'nikmasini rivojlantirish;
- yakuniy natijaga erishish uchun harakatlar ketma-ketligini to'g'ri bajarish qobiliyatini shakllantirish.

Kerakli materiallar: plastilin, plastilin bilan ishlash uchun taxta va stek, darslik, buyum namunasi.

Tashkiliy qism (10 daqiqa).

O'qituvchi o'quvchilar bilan salomlashadi. Davomatni va darsga tayyorgarlikni tekshiradi.

O'qituvchi bugun darsda o'quvchilar plastilindan hayvonlar yasashlari kerakligini aytadi.

O'qituvchi savollar beradi:

1. Qanday suvda suzuvchi hayvonlarni bilasiz?
2. Toshbaqalar qayerda yashashini bilasizmi? O'rdaklar-chi?

O'qituvchi toshbaqalar haqida hikoya qiladi:

Toshbaqalar – sayyoramizda yashovchi hayvonlarning eng qadimiy turlaridan biridir. Ular Yer yuzida 200 million yildan beri yashab kelmoqda. Bugungi kunda toshbaqalarning 328 ga yaqin turi mavjud. Dengiz toshbaqalari dengiz va okeanlarning iliq suvlarida yashaydi. Quruqlik toshbaqalari savanna, dasht va cho'llarda hayot kechiradi. Ba'zi turlari hatto tropik o'rmonlarda ham uchraydi. Chuchuk suv toshbaqalari chuchuk suvli suv havzalarida yashaydi. Quruqlik toshbaqalari asosan o'simlik ozuqasi

bilan oziqlanadi, chuchuk suv va dengiz toshbaqalari esa aksincha, ko'pincha yirtqichlardir. Ular turli baliqlar, shuningdek, mollyuskalar, bo'g'imoyoqlilar va boshqa umurtqasizlarni iste'mol qiladi.

Ko'plab toshbaqa ishqibozlari ularni uy sharoitida saqlaydilar.

O'qituvchi savol beradi:

1. Toshbaqalar haqida nimalarni bilib oldingiz?
2. Toshbaqalar qanday guruhlariga bo'linadi?
3. Sizningcha, nima uchun odamlar uy toshbaqalarini boqadilar? Buning uchun nima zarur?

O'qituvchi o'rdaklar haqida hikoya qiladi:

O'rdaklarni ikkita asosiy guruhga ajratish mumkin: *yovvoyi va uy o'rdaklari*. Yovvoyi o'rdaklarning yashashi uchun asosiy shart suv havzasining mavjudligidir, chunki u ushbu qushlar uchun ozuqa manbai hisoblanadi.

Yovvoyi o'rdak yashash uchun suv havzasini tanlashi uchun qirg'oq bo'yi o'simliklari (butalar, qamishzorlar, shamoldan qulab tushgan daraxtlar) bo'lishi kerak, ular o'rdakning uyasini va tuxumlarini begona ko'zlardan yashiradi. Uy parrandalari vakillari bilan hamma narsa ancha oson - ular uchun sharoit yaratilgan joyda yashaydilar. O'rdaklar o't, suv o'simliklari, hasharotlar, urug'lar, mevalar, baliq, qisqichbaqasimonlar va boshqa turdagi ozuqalar bilan oziqlanadi.

O'qituvchi savol beradi:

1. O'rdaklar haqida qanday yangi ma'lumotlarni bilib oldingiz?
2. O'rdaklarning yashash muhiti toshbaqalarning yashash muhitidan nimasi bilan farq qiladi?
3. Bu hayvonlarning o'xshash va farqli tomonlari nimalardan iborat?

Namuna tahlili (5 daqiqa).

Darslikda ishning ikkita varianti keltirilgan: Toshbaqa va O'rdak. O'quvchilar ulardan istalganini tanlashlari mumkin. Yoki xohlasalar, ikkala ishni ham bajarishlari mumkin.

Darsning bu qismi tuzilma bo'yicha odatdagidek o'tkaziladi. Darslikda o'quvchilarga yordam sifatida video yo'riqnoma keltirilgan, undan foydalanib ish rejasini tuzishlari va amaliy qismni bajarishlari mumkin.

Amaliy qism (20 daqiqa).

O'qituvchi ishni baholash mezonlarini e'lon qiladi. Ish mustaqil ravishda bajariladi. Zarur hollarda o'qituvchi yordam ko'rsatadi.

Yakunlash va refleksiya (5 daqiqa).

Darsning bu qismi tuzilma bo'yicha odatdasi tarzda o'tkaziladi.

Dars oxirida o'qituvchi o'quvchilarning erishgan yutuqlarini baholaydi.

9-dars. Qurt, Kapalaklar

Dars maqsadlari:

- o'quvchilarning dunyoqarashini kengaytirish;
- o'quvchilarni yangi turdagi material - gofrlangan qog'oz bilan tanishtirish;
- gofrlangan qog'oz bilan ishlash ko'nikmasini rivojlantirish;
- yakuniy natijaga erishish uchun harakatlar ketma-ketligini to'g'ri bajarish ko'nikmasini rivojlantirish;
- muloqot va hamkorlik kabi kompetensiyalarni shakllantirish (juft bo'lib ishlash, faol tinglash ko'nikmalari, o'z fikrini ifodalay olish, suhbat olib borish, maqsad qo'yish va unga erishish ko'nikmalari).

Zarur materiallar: rangli qog'oz, gofrlangan qog'oz, qaychi, yelim, darslik, buyum namunasi.

Tashkiliy qism (10 daqiqa).

O'qituvchi o'quvchilarga salom beradi. Davomatni va darsga tayyorgarlikni tekshiradi.

O'qituvchi bu darsda o'quvchilar materialning yangi turi - gofrlangan qog'oz bilan tanishishlari va ishlashlari kerakligini ma'lum qiladi.

O'qituvchi o'quvchilarga gofrlangan va oddiy qog'oz bo'laklarini ko'rib chiqish, g'ijimlab ko'rish hamda o'rab va buklab ko'rishni taklif etadi.

O'qituvchi quyidagi savollarni beradi:

1. Gofrlangan qog'oz oddiy qog'ozdan nimasi bilan farq qiladi?
2. Gofrlangan qog'ozning qanday xususiyatlarini payqadingiz?
3. Bu material qanday ishlar uchun mos keladi?

O'qituvchi o'quvchilardan biriga darslikdagi qurt haqidagi matnni ovoz chiqarib o'qishni taklif qiladi.

O'qituvchi quyidagi savollarni beradi:

1. Qurt haqida nimalarni bilib oldingiz?
2. Kapalak qayerdan paydo bo'ladi?
3. Qurt qayerdan paydo bo'ladi?